

## 19-mavzu: "Uch ko`zli narsa to`g`risida" she`ri (Jon Chiardi)

### Darsning maqsadi:

**a) ta`limiy:** o`quvchilarni she`r matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, o`quvchilarga ifodali o`qishni o`rgatish.

**b) tarbiyaviy:** o`quvchilarga yo`lda yurish qoidalarini va ularga amal qilishni o`rgatish, ularga yo`l harakati qoidalariga amal qilmaslik yomon oqibatlariga olib kelishi mumkinligini tushuntirish.

**c) rivojlantiruvchi:** o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

**Dars metodi:** Suhbat, tushuntirish, savol-javob, "Sinkveyn" metodi, "Mosini top!", "Quvnoq daqiqa" ta`limiy o`yinlari.

**Dars jihozi:** Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

### Darsning borishi:

#### I. Tashkiliy qism.

Salomlashish. O`quvchilarni darsga hozirlash. Ma`naaviat daqiqasi o`tkazish.

#### II. Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – "**Dum-dumaloq qo`ng`iz**" hikoyasi. O`quvchilar hikoyani ifodali o`qib, mazmunini qayta hikoyalab beradilar.


**"Mosini top!" mashqi.**



O`quvchilar foydali va zararli hasharotlarga misollar yozadilar.

### "Quvnoq daqiqa" o`yini.

O`quvchilar berilgan ma'lumotlar asosida nima haqida gap ketayotganini topadilar.




### III. Yangi mavzu bayoni.

Bugungi dars svetofor haqida ekanligi aytilib, mavzu e'lon qilinadi: "Uch ko`zli narsa to`g`risida" she'ri. Hikoya muallifi **Jon Chiardi** haqida ma'lumot beriladi. Yangi mavzu o`quvchilarga o`qituvchi tomonidan ifodali o`qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi.

**"Sinkveyn" metodi.**

O`quvchilar svetoforga ta'rif beradilar.



**Dam olish daqiqasi o`tkaziladi.**

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Savollarga javob bering.**

1.She'r nima haqida?

2.Svetofordagi ranglarning vazifasi nima?

3.Siz biror marta yo`l harakati qoidalarini buzganmisiz?

4.She'rni o`qib chiqqach, qanday xulosaga keldingiz?

**"Mosini top!" mashqi.** O`quvchilar darslikda berilgan rasmlardan she'rga mos rasmni tanlab beradilar. Javoblarini izohlaydilar.

**"Bu qiziq!"**


O`quvchilar svetofor haqida qiziqarli ma'lumotlarni darslikdan o`qib, tanishadilar.

**"Mustaqil topshiriq" mashqi.**

Qanday yo`l belgilarini bilasiz? Ularning rasmini chizing.

**Mashq daftar bilan ishlash.**

**1-topshiriq.** She'r mazmuniga mos bo'lmagan rasmlarni aniqlang.



**2-topshiriq.** "Yo'l qoidasi – umr foydasi" maqolini qanday tushunasiz?  
Izohlang.

O'quvchilar o'z fikrlarini yozadilar.

**3-topshiriq.** Testlarni yeching.



1. ning qaysi chirog'i yonganda piyodalar yo'lni kesib o'tishi mumkin?

A. Sariq B. Qizil **D.** Yashil E. Farqi yo'q

2. Piyodalar yo'lni qanday yo'l belgisi qo'yilgan joylardan kesib o'tishi kerak?

**A.** "Piyodalar o'tish joyi" belgisi bor joydan B. Zebra chizig'idan

D. "Piyoda yurishi mumkin emas" belgisi bor joydan E. Istalgan joydan

**4-topshiriq.** "Kim topqir?" o'yin-musobaqasi. Rasmlarga qarab to'g'ri va noto'g'ri vaziyatlarni belgilang.



**V.Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.**

**Savol-javob o`tkaziladi.**

- She'r nima haqida yozilgan?

- Siz yo`l harakati qoidalariga rioya qilish haqida nimalarni bilasiz?

**VI.Uyga vazifa berish.** She'rni yod oling.

## **20-mavzu: Bo`lim yuzasidan takrorlash.**

**Darsning maqsadi:**

**a)ta'limiy:** o`quvchilarning o`tilgan mavzular yuzasidan bilimlarini mustahkamlash, og`zaki va yozma nutqini o`stirish, mustaqil fikrlashga,ifodali o`qishga o`rgatish.

**b)tarbiyaviy:** o`quvchilarga insonlarga doimo yaxshilik qilishni o`rgatish, ularga yo`l harakati qoidalariga amal qilmaslik yomon oqibatlariga olib kelishi mumkinligini tushuntirish.

**c)rivojlantiruvchi:** o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini , ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** Mustahkamlovchi dars